

## NUROBOD TUMANI ETNONIMLARI ASOSIDA YUZAGA KELGAN ETNOTOPONIMLAR

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11218722>

**Charos Kamolova To'lqinboy qizi**

*Sharof Rashidov nomidagi*

*Samarqand davlat universiteti*

*Filologiya fakulteti 1-kurs magistranti*

### **Annotatsiya**

*Maqolada Nurobod tumanidagi ba'zi etnotoponimlarning yuzaga kelishida asos bo'lib xizmat qiluvchi etnonimlar, ularning nomlanishi bayon qilingan.*

### **Kalit so'zlar**

*etnonim, etnotoponim, etnooykonim, antroponim, oronim, oykonim, urug', qabila.*

Etnonimlar jamiyat asosini tashkil etuvchi asosiy insonlar guruhini tashkil etadi. Turkiy tillar etnonimiyasi, jumladan, o'zbek etnomiyasi tarkibidagi millat, qabila, urug' nomlari va ularning tarkibiga kiruvchi shaxobchalarini o'rganish maqsadida tarix va tilshunoslik sohasida ko'plab tadqiqotlar va izlanishlar olib borilganligiga guvoh bo'lamiz. O'zbek tilshunosligida bu sohadagi dastlabki ishlar XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ko'zga tashlanadi, ya'ni onomastikaning rivojlanishi natijasida o'zbek etnonimiyasiga e'tibor kuchaya boshladi va bu etnonimlarni tilshunoslik nuqtayi nazaridan o'rganish harakatlari boshlandi.

Bizga ma'lumki, o'zbek xalqiga mansub bo'lgan etnonimlar haqidagi dastlabki ma'lumotlar Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'otit turk" asarida, Alisher Navoiy, Bobur asarlarida, Abulg'ozzi Bahodirxonning "Shajarayi turk" asarida o'z aksini topgan. O'zbek xalqining tarkibidagi etnonimlarni tilshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq etish bo'yicha izlanishlar X.Doniyorov, A.Ishayev, K.Marqayev asarlarida uchraydi. Xudoyberdi Doniyorovning "O'zbek xalqining shajara va shevalari" deb nomlangan kitobi o'zbek etnik guruhlari tarkibidagi urug' va qabilalari nomlari, ularning etimologiyasi hamda shevasidagi til xususiyatlari yoritib berilgan dastlabki tadqiqot sifatida ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari, Komil Marqayev tomonidan o'zbek etnonimlari lisoniy jihatdan o'rganilgan.

Toponimlar etnonimlar bilan uzviy bog'liq holda shakllana boradi. Vaqtlar o'tishi bilan etnonimlar joy nomi yasash uchun xizmat qilgan, ya'ni ma'lum urug' yoki qabilaga mansub kishilar istiqomat qilgan hududlar o'sha urug' va qabila

nomi bilan atala boshlangan. Bunga oid tadqiqotlar S.Qorayev, T.Nafasov, Q.Hakimov, N. Begaliyev, A.Turobov va boshqa tadqiqotchi-olimlarning ishlarida o'z aksini topgan.

O'zbek xalqining etnik tarkibi murakkabligi bilan boshqa turkiy xalqlardan ajralib turadi. Hatto shunday etnonimlar ham borki, ular toponimlar, antroponimlar, oronimlar va oykonimlarni shakllantirish uchun xizmat qiladi. Etnonim joy nomiga o'tgach, dastlab ikki vazifada bo'ladi: birinchidan, aholining etnik tarkibini, ikkinchidan esa ularning yashagan joyini bildiradi. Etnonim, vaqt o'tishi bilan asta-sekin aholining etnik tarkibi unut bo'lib ketib, uning ikkinchi joy nomi ma'nosi saqlanib qoladi. Samarqand toponimiyasi haqida maxsus ish yozgan T.Rahmatov o'zining nomzodlik dissertatsiyasida etnotoponimlar haqida ma'lumotlar berib o'tgan.

Nurobod tumani hududida bir qancha etnonimik guruhlar mavjud bo'lib, ularning ba'zilari asosida toponimlar ham yuzaga kelgan. Shulardan biri, Po'latchi - Nurobod tumani hududida joylashgan qishloqning nomi. Bu toponimning yasalishi uchun urug' nomi asos bo'lgan. Tojikiston barloslarida po'latbachcha degan kichik urug'i borligi haqida ma'lumot mavjud. O'zbeklarning ham *po'latchi ~ po'lotchi* urug'i ma'lum. Etnonimning asosi - *po'lat ~ polat*. -chi jamlikni ifodalovchi qo'shimcha. -i affaksi aslida -ti tarzida bo'lgan (Po'latti). So'z tarkibida *t ~ ch* mosligi borligi haqidagi ma'lumotlar To'ra Nafasov tomonidan keltiriladi. Etnonim asosida toponim yasalganligini ko'rish mumkin. (suyun qorayev82)

O'zbekistonning janubiy hududlarida qo'shtamg'ali, tortuvli, vaxtamg'ali, oyinni va qanjig'ali kabi besh bo'limi mavjud. Qo'ng'irotlar bu urug'larni ota deb ataydi. B.X.Karmisheva bu urug'larni qabilaning bo'limi deb hisoblaydi. Etnonimdan Samarqand va Qashqadaryo viloyati hududida bir necha qishloq nomlari yuzaga kelganligini ko'rish mumkin. Tortuvli toponimiga etnonim asos bo'lganligi haqida fikrlar Suyun Qorayevning asarlarida ham o'z aksini topgan. Uning fikricha, tortuvli urug'i qo'ng'irot urug'inинг ajdodi Qo'ng'irot otaning kichik xotinidan tarqalgan ekan. Qo'ng'irotota keksayganda kichik xotini o'g'il tug'ib, tortuv (tortiq - sovg'a) qilgani uchun, undan tarqalganlar tortuvli deb atalgan ekan. Bundan ko'rindiki, tortuvli etnonimi yasama so'z, ya'ni ot tyrkumidagi so'zdan narsaga egalik ma'nosini ifodalovchi yangi sifat turkumidagi so'z hosil qilingan: *tortuv + li*. Etnonim asosida Nurobod tumani hududida etnooykonim yasalgan.

O'zbek urug'lari tarkibida yuz, do'rman, nayman, qurama, marqa qabilalari tarkibida achamayli urug'i bo'lgan. Taqdiqotlardan ma'lumki, qozoq va qoraqalpoqlarda ham ashamayli degan yirik urug' mavjud. Ba'zi adabiyotlarda

ochamayli tarzida beriladi. Bu etnonim *acha + mayli* < *may + li* morfemalaridan iborat. *Boylı ~ moylı ~ baylı ~ maylı* leksemasi mustaqil tarzda urug' nomi: *boylı, moylı*. Qo'shma etnonimlarning *jag'albaylı ~ jag'almaylı, moylı-bolta*. *Moy ~ boy ~ may ~ bay* – qush nomi. XI asr turkiy tilida sayroqi qushlardan biri baybayo'q deyilgan. *Achamay ~ may ~ bay ~ moy ~ boy* qushning bir turi. Qush qabilaning totemi sanalgan. Totem etnonimga aylanib, -*li* affiksi qo'shilgach, jamlik – kishilar jamoasi ma'nosini ifodalanganligi haqidagi fikrlar To'ra Nafasov tomonidan bildiriladi.

Achamayli etnonimining etimologiyasiga Suyun Qorayev boshqacha yondashadi. Uning izlanishlariga ko'ra, qadimda ho'kiz yoki qo'tosga uriladigan yoki bolalar minishi uchun mo'ljallangan egar ochamay deyilgan. Demak, bu urug'ning tamg'asi egar shaklida bo'lganligini ta'kidlaydi.

Bundan ko'rindiki, achamayli etnonimining yasalishi uchun totem qilib olingan. Vaqtlar o'tishi bilan bu urug' yashaydigan hududlar o'sha urug' nomi bilan yurilishi natijasida etnooykonim yasalgan.

Uyshun – Nurobod tumani hududidagi qishloq nomi. Uyshun qadimda nufuzli qabila nomi bo'lgan. A.Navoiy asarlarida ham bu qabila ko'p bora tilga olinganligi haqida ma'lumotlar Komil Marqayev tomonidan aytildi. Vaqtlar o'tishi bilan etnonim nomi bo'lgan uyshun toponimga ko'chgan. Tadqiqotchilar bu so'zning etimologik jihatdan turlicha tasnif qilishgan. B.G'afurovning fikricha, sharq tillarida *usuan ~ o'svan* tarzida qo'llangan so'z yaxlit holatda bir so'zni tashkil etadi.

T.Jonuzoqov esa *uyshun ~ uysun ~ uysin ~ uymovut ~ uyrat ~ uyrur* etnonimlarining birinchi qismi *uy ~ oy o'rmon* ma'nosini beradi, -sin ~ sun ~ shun esa boysin, olchin singari etnonimlar bilan bir etimologiyaga ega, degan fikrlarni aytib o'tadi. Bu turkiy tillarda xalq, kishilar jamoasi degan ma'noni bildirishi haqida fikrlar To'ra Nafasov tadqiqotlarida duch kelamiz. Demak, uyshun so'zi o'rmon kishisi, o'rmon odami degan ma'nolarni ifodalaydi. Bunday ko'rindiki, uyshun so'zi tarixan yasama so'z: *uy + shun*. Bu etnonimdan etnotoponim yasalgan. (Б.189.)

Keyingi etnotoponim Nurobod tumani hududida joylashgan qishloq nomi bo'lgan Qoraqursoq. Bu toponimning etimologiyasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, uning yasalishi uchun etnonima asos bo'lganligiga guvoh bo'lamic.

Qoraqursoq (ba'zi adabiyotlarda qorag'ursoq) – Qo'ng'irot urug'inining qanjig'ali bo'limining tarkibiga kiruvchi urug'lardan birining nomi. Tarixan yondashadigan bo'lsak, qursoq ~ g'irsoq ~ qarsaq urug'inining bir tarmog'i qoraqursoq bo'lganligini To'ra Nafasov asarlaridagi fikrlar tasdiqlaydi: "Qarsaq – mo'ynali hayvon, cho'l tulkisi. Qozoq, o'zbek tillarida tulkinining bir turi, qirg'iz

tilida tulki qursoq – cho'l tulkisi. Qoraqursoq – qarsaqning bir turi". Bundan ko'rindiki, etnonimning yasalishi uchun totem asos vazifasini bajargan. Vaqtlar o'tishi bilan etnonim asosida aholi istiqomat qiladigan joy nomi - etnooykonim yuzaga kelgan. (Б.257.)

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, vaqtlar o'tishi bilan etnonimik guruhlarning nomlari o'zları yashagan hududlarning nomlarini hosil qilish uchun xizmat qilishi mumkin. Biz buni Nurobod tumani hududidagi etnotoponimlar va ular tarkibiga kiruvchi etnooykonimlar (aholi yashash joylari nomlari) misolida ko'rishimiz mumkin.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Бегалиев Н., Турбов А. Самарқанд топонимияси. – Самарқанд, 2015.
2. Дониёров Х. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари. – Тошкент, 1968.
3. Qorayev S. Toponimika. – Toshkent, 2006.
4. Begaliyev N. O'zbek etnonimlari tarixidan. – Samarqand, 2004.
5. Qorayev S. O'zbekiston viloyatlari toponimlari. – T.: O'zbekiston, 2005.
6. Nafasov T., Nafasova V. O'zbek tili toponimlarining o'quv izohli lug'ati. -Toshkent, 2007.